



IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA ISLOMIY SUG'URTA FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yunusov Jaloliddin Abduraxim o'g'li

Oriental universiteti magistratura bosqichi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishda bir necha vazifalar haqida, Islom sug'urtasi turli shakllarda amalga oshirilishi haqida, Islom moliyasining moxiyati va uning zamonaviy moliyaviy instrumentlariga oid ilmiy yondashuvlarni tadqiq etish haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: harakatlar strategiyasi, sug`urta, o`zgarishlar, yondashuv, vazifa, o`zgarish, globallashuv.

Bugungi kunda jahon bozori konyukturasidagi keskin o'zgarishlar, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqdaki, buni e'tiborga olgan holda mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi yo'nalishida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishda bir necha vazifalar belgilanib olindi. Shulardan biri sug'urta va lizing hamda boshqa moliyaviy xizmatlar hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish, shuningdek, kapitalni jalb qilish hamda moliyaviy institutlar va aholining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirishidir.

Davlatning ijtimoiy - iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida to'liq va ijobjiy hal etish ma'lum moliyaviy asosni talab etadiki, aynan ushu asosning markaziy bo'g'inini davlat budgeti daromadlari tashkil etadi. Davlat moliyasini sog'lomlashtirish davlat budgeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan institutsional isloxtolarni xozirgi bosqichida yanada muhim axamiyat kasb etmoqda. Bir vaqtning o'zida mamlakatimiz budgetining so'ngi yillaridagi ijobjiy qoldig'i, ya'ni budgetning profitsit bilan yakunlanishiga qaramasdan, budgetni belgilangan miqdordagi daromadlar bilan ta'minlash masalasining juda katta qiyinchiliklar bilan hal etilayotganligini, davlatning ixtiyorida bo'lishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslarning yetarli darajada emasligi uning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti daromadlarini shakllantirish tizimida qator muammolarning mavjudligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Ulardan asosiyлari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: Davlat budgeti soliqli daromadlarining tarkibida egri soliplardan tushumlarning nisbatan katta salmoqqa ega ekanligi; Davlat budgeti daromadlarini aniq tasniflash mezonlari asosida shakllantirish amaliyotining mavjud



emasligi va hokazolar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat budgeti soliqli daromadlarini shakllantirish muommolari hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot subyektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos bo'lgan maxsus xizmat bilan sug'urta shug'ullanadi. Sug'urta xizmati bahosining yuqori chegarasi talab hajmi va bank foizining miqdori bilan aniqlanadi. Sug'urta xizmatining ma'lum bir turiga yetarli darajada talab mavjud bo'lganda, sug'urta tashkiloti mazkur xizmat bahosini yuqori darajada saqlab turishi mumkin. Lekin, vaqt o'tishi bilan bozorda sug'urta xizmati ko'satishturlarining ko'payishi bilan, o'z-o'zidan tarif stavkalari kamayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 apreldagi 5464-sonli Farmoyishiga muvofiq o'zaro sug'urta institutini rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining yangi tahririda o'zini aksini topishi lozimligi rejalashtirilgan. 1 Xalqaro islomiy moliya institutlarining mablag'larini O'zbekistonga kiritish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Buning uchun tegishli infratuzilma va normativ-huquqiy baza bo'lishi zarur.

Mutaxassislarning fikricha takoful islomiy banksiz faoliyat yuritaverishi mumkin, lekin islomiy bank takofulsiz ishlay olmaydi. Chunki Islomda xatarlardan saqlanish va ularni oldini olish joizdir, biroq bu faoliyat ruxsat berilgan shakl va tamoyillarga ko'ra amalga oshirilishi lozimdir, bank va moliya sohasida esa o'ziga yarasha, jumladan to'lov qobiliyati bilan bog'liq bir qator tavakkalchiliklar mavjud. Shu sababli mamlakatimizga islomiy bank va moliya institutlarining mablag'larini jalb qilish uchun takofulni rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Sug'urta kompaniyalarining tashkiliy shakliga ko'ra 5 ta turi faoliyat yuritadi. Sug'urta bozori hududiy joylashuviga qarab xalqaro, mintaqaviy va milliy sug'urta bozorlariga bo'linadi. Milliy sug'urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug'urta muassasalarini va ularni faoliyatini o'z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug'urta bozori Amerika Qo'shma shtatlaridir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushumlarining 43 foizdan ortig'i AQSh hissasiga to'g'ri keladi. Bu yerda hayotni sug'urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqadavlat sug'urta kompaniyalarida davlat sug'urtachi sifatida ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli Qarori sug'urta faoliyatida muhim yangilik bo'ldi. Ilk bor sug'urtalovchilarining ustav kapitaliga eng kam miqdorlar belgilandi. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizom, sug'urta faoli yati klassifikatori tasdiqlandi.⁴

Ushbu qaror sug'urta bozorini yanada rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish, sug'urta faoliyatining zamnaviy va yangi turlarini yaratish, sug'urtalaovchilarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urtani nazorat qilish shakllarini takomillashtirish bo'yicha muhim hujjat bo'ldi. Milliy sug'urta



bozorini yanada isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taminlash, sug'urta xizmatlarining talab yuqori bo'lgan yangi turlar ini joriy etish, iste'molchilarning sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdag'i "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini taminlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4412-son qarori bilan mamlakatimizda sug'urta kompaniyalari ustav fondining minimal miqdoriga qo'yilgan talablar o'zgardi.

Islom sug'urtasi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan takaful, vaqf, o'zaro yordam jamg'armalari va o'zaro sug'urta ko'rinishida. Misol uchun, "takaful" arabcha so'z bo'lib "o'zaro kafolatlash" ma'nosini bildiradi va O'zbekiston qonunchiligidagi ko'zda tutilgan, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ikki tomonlama sug'urtaga mos keladi. Ushbu sug'urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko'rinishida ham qo'llanib kelinmoqda. Bundan, moliyaviy mahsulot yoki tizimning nafaqat nomiga balki uning shakli va tamoyillariga ham e'tibor qaratish muhimligini anglashimiz mumkin. Takaful to'g'ri amalga oshirilishi uchun maxsus sug'urta jamg'armasi tuziladi. Jamg'arma a'zolari oldindan e'lon qilingan tartib-qoidaga ko'ra sug'urta uchun badallarni ehson sifatida jamg'armaga kiritishadi, jamg'arma esa o'z mulkiga aylangan ushbu mablag'lar hisobidan a'zolarining kelishilgan zararlarini qoplab turadi. Yil yakunida sug'urtadan ortgan mablag'larning bir qismi jamiyat nizomidagi tartib-qoidalar asosida keyingi yillar zaxirasiga olib qo'yilishi yoki a'zolar o'rtasida taqsimlanishi, vaqf shaklida tuzilgan jamg'armaning qoldig'idan esa muhtojlarga moddiy yordam ham ko'rsatilishi mumkin. Jamg'arma boshqaruvi odatda tijorat tashkilotiga topshiriladi. Bunda boshqaruvchi tashkilot jamg'armaga egalik qilmaydi, balki jamg'arma faoliyatini vakil sifatida boshqaradi va o'zining xizmatlari evaziga jamg'armadan haq olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda, boshqaruvchi tashkilot va jamg'arma a'zolari o'rtasida manfaatlar qarama-qarshiligi yuzaga kelmaydi, chunki jamg'arma hisobidan zararlarni to'lamaslikdan boshqaruvchi tashkilot hech qanaqasiga manfaatdor bo'lmaydi. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozim: jamg'armaning tovon to'lovidan ortgan qismi jamg'arma va uning a'zolari ixtiyorida qoldiriladi, ya'ni boshqaruvchi tashkilot tasarrufiga o'tkazilmaydi. Ba'zida ko'rilgan zarar taxmin qilingan ko'rsatkichlardan yuqori bo'lib qolishi va shu sababli jamg'arilgan badallar zararlarni qoplashga yetmay qolishi mumkin. Shunday paytlarda tovon to'lovi uchun kerak bo'lgan mablag' jamg'armaning boshqaruvchi tashkilotidan qarz yoki boshqa o'zaro sug'urta jamiyatlaridan (avvalroq tuzilgan kelishuv asosida) yordam sifatida olinadi.

Olingan qarzlar keyingi yillardagi sug'urta to'lovlaridan ortgan zaxira hisobidan qaytariladi. Agar boshqa jamg'armalardan, ularga oldindan badal o'tkazib turish hisobiga, yordam puli olingan bo'lsa, ushbu yordam puli qaytarilmaydi.

Sugurta mamlakat moliya tizimining eng muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar shu jumladan yurtimizda malda bo'lib kelayotgan an'anaviy sigurta tizimi o'zida ribo (foiz), garar (noaniqlik), va maysir (qimor) elementlarininining mavjudligi musulmonlarning diniy aqidalariga to'g'ri kelmaydi.



Islomda sug'urtaning kelib chiqishini aniq aniqlash qiyin. Biroq, bugungi kunda sug'urta shartnomasining xususiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, sug'urta operatsiyalari Muqaddas Payg'ambar Muhammad (SAV) davridan beri amal qilingan edi. Musulmon dunyosida sugurta asta-sekin rivojlangan o'n to'qqizinchi asr Hanafiy yuristi Ibn Obidin (1784-1836) birinchi bo'lib sug'urtaning mazmuni, tushunchasini ilgari surgan. [1]

Takaful to'g'ri amalga oshirilishi uchun maxsus sug'urta jamg'armasi tuziladi. Jamg'arma a'zolari oldindan e'lon qilingan tartib-qoidaga ko'ra sug'urta uchun badallarni ehson sifatidajamg'armaga kiritishadi, jamg'arma esa o'z mulkiga aylangan ushbu mablag'lар hisobidan a'zolarining kelishilgan zararlarini qoplab turadi. Yil yakunida sug'urtadan ortgan mablag'larning bir qismi jamiyat nizomidagi tartib-qoidalar asosida keyingi yillar zaxirasiga olib qo'yilishi yoki a'zolar o'rtasida taqsimlanishi, vaqf shaklida tuzilgan jamg'armaning qoldig'idan esa muhtojlarga moddiy yordam ham ko'rsatilishi mumkin.

Xamda takofulning ishslash mexanizmi va tipologiyasining ilmiy asoslarini ochib berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Sug'urta bozorida takofulning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni va uning roliga oid ilmiy-nazariy qarashlarini yoritib berishda bugungi kun qonunchiligi asosida o'rganish lozim.

Sug'urta bozorida takofulning rivojlanishi va zamonaviy xolatini baxolash; takoful moliyaviy instrumentining iqtisodiyot taraqqiyyotiga ta'sirini ekonometrik taxlillar orqali asoslash; xalkaro tajribada takofulni joriy etishning ilgor mexanizmini tadqiq qilish va uziga xos xususiyatlarini aniqlash masalalari yoritilishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotiga takofulni joriy kilishning tashkiliy-xuquqiy asoslarini taxlil qilish va O'zbekiston iqtisodiyotiga takofulnini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. O'zbekistonda takoful instrumentidan mushoraka, mudoraba, murobaxa, salam, istisno xamda ijara kelishuvlari tamoyillari asosida foydalanish taklif etilgan.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi TOSHKENT-2017,
2. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
3. Jurayev B. (tarj.) "Islomiy moliya va bank tizimi". Toshkent, "O'zbekiston", 2019 y.
4. https://hozir.org/pars_docs/refs/87/86767/86767.pdf
5. Baydaulet E.A. "Islom moliya asoslari". Toshkent, "O'zbekiston", 2019 y